

Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar–fevral oylarida, Samarqand viloyatida jami 3 723,2 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,9 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



Hududlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari hajmi

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	3 723,2	110,9
<i>Shaharlar</i>		
Samarqand sh.	808,5	101,7
Kattaqo'rg'on sh.	75,8	112,2
<i>tumanlar</i>		
Oqdaryo	290,8	111,1
Bulung'ur	125,6	104,2
Jomboy	173,1	104,4
Ishtixon	153,6	111,8
Kattaqo'rg'on	85,2	101,4
Qo'shrabot	121,6	124,7
Narpay	87,3	111,7
Payariq	311,9	105,1
Pastdarg'om	150	111,8
Paxtachi	87,9	101,9
Samarqand	222,5	101,0
Nurobod	38,8	112,5
Urgut	164,4	102,8
Toyloq	298	172,4
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	528,2	118,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 48,7 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,8 % ni tashkil etdi.

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 49,2% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,1 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 114,4 % ni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	48,6	522,2	0,0
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	113,8	12,2 m.	0,0
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	1 206,2	1 311,1	73,6
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	102,8	111,8	103,2
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	561,5	-	-
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	101,0	-	-

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-mart oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 570,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 203,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 15,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 69,6 %i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni tashkil etgan holda 2 590,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 15,1 % ni yoki 561,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 101,0 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Samarqand viloyati	570,9	2 590,8	561,5	2,0 m.	102,8	101,0
<i>shaharlar</i>						
Samarqand sh.	41,5	739,4	27,5	140,3	105,3	43,4
Kattaqo'rg'on sh.	2,5	59,7	13,6	0,0	106,6	118,3
<i>tumanlar</i>						
Oqdaryo	9,5	263,4	18,0	109,6	112,1	98,8
Bulung'ur	5,8	102,8	17,0	2,8 m.	101,7	97,6
Jomboy	5,2	151,2	16,8	2,4 m.	102,7	102,2
Ishtixon	10,4	133,8	9,4	2,5 m.	112,8	63,9
Kattaqo'rg'on	2,9	70,5	11,8	113,6	100,1	107,4
Qo'shrabot	62,1	46,6	12,9	156,4	93,1	165,5
Narpay	1,4	70,1	15,8	2,2 m.	121,4	79,9
Payariq	30,6	265,9	15,4	3,6 m.	98,2	89,3
Pastdarg'om	70,1	63,1	16,8	153,7	87,2	103,4
Paxtachi	1,8	71,6	14,5	163,6	98,2	118,7
Samarqand	41,8	165,2	15,5	2,5 m.	88,5	89,7
Nurobod	3,3	25,3	10,2	167,5	126,9	81,2
Urgut	6,2	145,5	12,7	5,2 m.	100,7	89,1
Toyloq	202,3	80,9	14,7	2,8 m.	92,0	108,2
Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.	73,5	135,8	318,9	163,77	107,0	117,1

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Urgut tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 5,2 m.), Payariq tumanida (3,6 m.) va Toyloq tumani (2,8 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Nurobod tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 126,9%), Narpay tumanida (121,4%) va Ishtixon tumanida (112,8%) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
L. Haitov
66 235-60-82 (3020)

Manzil:

